



SOCIO-PHILOSOPHICAL ISSUES IN THE FORMATION OF HISTORICAL CONSCIOUSNESS AND AXIOLOGICAL WORLDVIEW IN CONTEMPORARY UZBEKISTAN

Dilnoza Innatovna Asadova

Senior Lecturer Department of Philosophy

Tashkent State University of Economics

Email: dilnoza_asadova@mail.ru

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: historical consciousness, axiological worldview, values, society, Uzbekistan, personality, social philosophy, globalization, identity, axiosphere.

Received: 08.10.25

Accepted: 09.10.25

Published: 10.10.25

Abstract: This article provides a comprehensive socio-philosophical analysis of the formation of historical consciousness and axiological worldview in modern Uzbekistan. It explores the interrelation between historical memory, value systems, educational content, globalization, and cultural identity. The concept of historical consciousness is interpreted not merely as a collection of facts but as a dynamic system grounded in social consciousness and values. The study further examines challenges in the education system, the emergence of the "axiosphere", value crises, and identity issues among youth, emphasizing their role in shaping the spiritual-intellectual trajectory of society.

ZAMONAVIY O'ZBEKISTONDA TARIXIY ONG VA AKSIOLOGIK DUNYOQARASH SHAKLLANISHINING IJTIMOIIY MUAMMOLARI

Dilnoza Innatovna Asadova

"Falsafa" kafedrasi katta o'qituvchisi

Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti

dilnoza_asadova@mail.ru

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: tarixiy ong, aksiologik dunyoqarash, qadriyatlar, jamiyat, O'zbekiston, shaxs, ijtimoiy-falsafa, globallashuv, identitet, aksiosfera.

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy O'zbekiston jamiyatida tarixiy ong va aksiologik dunyoqarashning shakllanish jarayonlari ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan

chuqur tahlil qilinadi. Unda tarixiy xotira, qadriyatlar tizimi, ta'lim mazmuni, globallashuv va madaniy identitet kabi omillar o'zaro bog'liq holda ko'rib chiqilib, bu jarayonlarning murakkab, ziddiyatli va ko'p qatlamli xususiyatlari ochib beriladi. Mualliflar tarixiy ongni nafaqat o'tmishga oid bilimlar yig'indisi, balki ijtimoiy ong va qadriyatlar asosidagi dinamik tizim sifatida talqin qiladilar. Shuningdek, ta'lim tizimidagi xatolar, aksiosferaning shakllanishi, qadriyatlar inqirozi va yoshlar ongidagi identitet muammolari ham tahlil etilgan.

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ИСТОРИЧЕСКОГО СОЗНАНИЯ И АКСИОЛОГИЧЕСКОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ В СОВРЕМЕННОЙ УЗБЕКИСТАНЕ

Дильноза Иннатовна Асадова

Старший преподаватель, Кафедра философии

Ташкентский государственный экономический университет

Эл. почта: dilnoza_asadova@mail.ru

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: историческое сознание, аксиологическое мировоззрение, ценности, общество, Узбекистан, личность, социальная философия, глобализация, идентичность, аксиосфера.

Аннотация: В статье всесторонне анализируются процессы формирования исторического сознания и аксиологического мировоззрения в современном узбекском обществе с социальной и философской точек зрения. Рассматриваются такие взаимосвязанные аспекты, как историческая память, система ценностей, содержание образования, влияние глобализации и культурной идентичности. Историческое сознание трактуется не просто как накопление знаний о прошлом, а как динамическая система на основе общественного сознания и ценностей. Особое внимание уделено педагогическим и идеологическим аспектам, аксиосфере, кризису ценностей и проблемам идентичности молодежи.

Kirish. Zamonaviy O'zbekistonda milliy o'zlikni tiklash, tarixiy xotirani qayta yaratish va fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonlarining barchasi tarixiy ong va aksiologik dunyoqarashning shakllanishi bilan chambarchas bog'liq. Bu jarayonlar bir qarashda ma'lum va maqsadli harakatlar ketma-ketligiday ko'rinsa-da, aslida, murakkab, ziddiyatli va ko'p qirrali ijtimoiy-falsafiy masalalarni qamrab oladi. Tarixiy ong faqat tarixiy bilim emas, balki jamiyat

xotirasining shakllantiruvchi manbai sifatida, o'z navbatida, aksiologik dunyoqarash esa jamiyat va shaxsning qadriyatlarga munosabatini ifoda etuvchi dinamik tizim sifatida namoyon bo'ladi [1. B.16–26].

Tarixiy ong va dunyoqarash shakllanishidagi asosiy muammolardan biri — tarixiy voqealarni sub'ektiv va ideologik talqin qilish orqali umummilliy, xolis yondashuvning izdan chiqishidir. Ayniqsa, o'tmishni modernizatsiya qilish, uning faqatgina g'alabali tomonlarini yoritish tendentsiyasi yoshlar ongida tarixiy muvozanatsizlikni keltirib chiqaradi. Bu esa jamiyatda tarixiy haqiqatga bo'lgan ishonchni so'ndiradi va voqelikni tahlil qilishda ijtimoiy ratsionallikni susaytirishi mumkin [2. 5–22]. Boshqa muhim muammo - global axborot maydonidagi “tarixiy narrativlar urushidir”. Hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlar, internet, bloglar, vizual media vositalar tarixiy ongni shakllantirishda kuchli ta'sirga ega bo'lib bormoqda. Biroq ushbu manbalarning epistemologik asoslari ko'p hollarda shubhali, ideologik ta'sirga moyil, emotiv va ehsosiy xulosalarga boyligi bilan ajralib turadi. Bu holat o'qimishli, tahlilga asoslangan tarixiy bilimlarning mavhumlashishiga olib keladi [3. 58–69].

Tarixiy ong shakllanishidagi yana bir ijtimoiy muammo - ta'lim tizimining tartibsizligi va aksar hollarda idoraviy yondashuvning ustuvorligida namoyon bo'ladi. Ta'lim dasturlarida tarixiy voqeliklarga faqatgina xronologik yondoshuv bilan cheklanish, uning aksiologik va ontologik xususiyatlarini chuqur anglatishga emas, balki yodlashga asoslangan yondashuv hukmron bo'lib qolmoqda. Bu esa yoshlarda tahlilga asoslangan dunyoqarashni shakllantirishga to'sqinlik qiladi [4. 46–56.]. Bundan tashqari, “aksiologik nihilizm” — ya'ni qadriyatlarning nisbiy, o'tkinchi va sub'ektiv deb qaralishi, zamonaviy global yoshlar madaniyati ta'sirida keng tarqalmoqda. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar, masalan, vatanparvarlik, milliy iftixor, tarixiy merosga hurmat tushunchalari o'rnini individual avtonomiya, layfstayl va pragmatik muvaffaqiyatka intiluvchi tendentsiyalar egallab bormoqda. Bu aksiologiyada dekadentlik va pragmatizm oralig'ida harakatlanuvchi yangi dunyoqarash turini yuzaga keltiradi [5. 96–108].

Shuningdek, tarixiy ong va dunyoqarash shakllanishidagi hududiy va ijtimoiy tabaqalashuv ham asosiy muammolardan biridir. Qishloq va shahar aholisi o'rtasidagi ta'lim, axborot va madaniyatga bo'lgan imkoniyatlar tafovuti yoshlar orasida dunyoqarashdagi yalpi xilma-xillikni keltirib chiqarmoqda. Natijada, tarixiy voqealarga nisbatan umumiy fikr va baholar o'rniga, alohida guruhlar manfaatlari asosidagi fragmentlangan qarashlar shakllanmoqda [6. 19–22]. Bu muammolarning hal qilinishi, faqatgina ma'muriy choralar bilan emas, balki ijtimoiy falsafiy yondashuv orqali tadqiq qilinishi talab etiladi. Masalan, tanqidiy ratsionalizm va shubha tamoyili tarixiy ong shakllanishida epistemologik muvozanatni ta'minlashga yordam beradi. Shubha tarixiy voqealarni qayta tahlil qilishga, ularning mazmun va zamonaviy ahamiyatini qayta belgilashga

imkon beradi. Bu orqali tarix faqat xotira emas, balki muammolar yechimiga xizmat qiluvchi dinamik resursga aylanadi [7. 66–73.].

Zamonaviy O‘zbekiston ijtimoiy rivojlanishining o‘ziga xos yo‘li, tarixiy transformatsiyalar va ularning ma’naviy-aksiologik asoslari ijtimoiy falsafa kontekstida tahlil etilganda, tarixiy ong va qadriyatlar tizimining o‘zaro munosabati ijtimoiy ongning eng muhim determinantlari sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan, tarixiy ong va aksiologik dunyoqarashning shakllanishi zamonaviy o‘zbekistonlik jamiyatning ijtimoiy muammolarini chuqur anglash, ularni kompleks tushunish va ularga nisbatan ilg‘or nazariy yondashuvlarni ishlab chiqishda fundamental metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi shubhasizdir. Mazkur masala O‘zbekiston sharoitida nafaqat tarixshunoslik, balki falsafa, sotsiologiya, madaniyatshunoslik va siyosatshunoslik fanlarining kesishgan nuqtasida joylashgan bo‘lib, uni ijtimoiy-falsafiy aspektda yoritish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

O‘zbekiston ijtimoiy-falsafiy tafakkurida tarixiy ong va qadriyatlar masalasi istiqlol yillaridan so‘ng keskin faollashdi. Chunki sobiq sovet mafkurasi parchalanganidan so‘ng, yangi ijtimoiy ong va dunyoqarash tizimini shakllantirish zarurati tug‘ildi. Mazkur bosqichda milliy identitet, tarixiy xotira va qadriyatlar tizimini qayta belgilash jarayoni muqarrar bo‘ldi. V. Y. Chernyx tomonidan e’tirof etilganidek, tarixiy inqiroz davrlarida jamiyatlar qadriyatlarni qayta ko‘rib chiqishga majbur bo‘ladi, aks holda ularning ichki birligi, ongiy tamoyillari va harakat yo‘nalishlari barbod bo‘lishi mumkin [8.114–115]. O‘zbekiston misolida bu jarayon 1990-yillarning boshlarida sobiq ittifoqdan mustaqil siyosiy, iqtisodiy va madaniy yo‘nalishga o‘tilganidan so‘ng o‘zining aniq ifodasini topdi.

Zamonaviy o‘zbekistonlik tarixiy ongni shakllantirish jarayoni ikkita muhim omil asosida kechmoqda: birinchisi – o‘z tarixini anglash, qadriyatlarini qayta baholash orqali o‘zlikni topishga qaratilgan ichki ehtiyoj; ikkinchisi esa – globallashtirish sharoitida madaniy identitetni saqlab qolish istagidir. Bu jarayonda qadriyatlar dunyosining qayta shakllanishi muhim rol o‘ynaydi. M. V. Vebber ta’kidlaganidek, ijtimoiy harakatlarning asosida yotgan omil – bu qadriyatli motivatsiyadir [9.134–136.] O‘zbekiston ijtimoiy-falsafiy amaliyotida esa bu motivatsiya, ko‘pincha, ma’naviy-ma’rifiy qadriyatlar asosida ifodalanadi: vatanparvarlik, tinchliksevarlik, mehnatsevarlik, otanaga hurmat va boshqalar.

Aksiologik jihatdan olganda, mustaqillik yillarida O‘zbekiston qadriyatlar tizimida ikki qutbli tendensiya kuzatildi: bir tomondan, zamonaviy texnologik taraqqiyot bilan uyg‘unlashishga intiluvchi modern qadriyatlar; ikkinchi tomondan esa, an’anaviy, milliy-ma’naviy qadriyatlarning kuchli ijtimoiy rol o‘ynashi. Mazkur holat G. Rikkert tomonidan ilgari surilgan “madaniy ahamiyatga ega faktlar” konsepsiyasi bilan izohlanadi: tarixshunoslik faqat umumiy qonuniyatlar emas, balki qadriyatli, yagonalik ifodasi bo‘lgan faktlarni tahlil qilishi kerak [10. 369–372.].

O'zbekiston tajribasi aynan mana shunday yondashuvni talab qiladi, chunki jamiyatda har bir tarixiy bosqich ma'lum bir qadriyatlar tizimi asosida baholanadi.

Tarixiy ong shakllanishida rus diniy-falsafiy maktabi vakillarining (V. S. Solovev, N. A. Berdyaev, P. A. Florenskiy) ishlari ham g'oyat muhimdir. Ayniqsa Solovevning "butun bilim" konsepsiyasi – ya'ni, haqiqat, go'zallik va ezgulik birligi – O'zbekiston ijtimoiy-ma'naviy qadriyatlar tizimiga mos keladi. Bu konsepsiya doirasida tarix nafaqat inson harakatining natijasi, balki ma'naviy dunyoning ifodasi sifatida qaraladi [11. 142].

Zamonaviy O'zbekiston ijtimoiy-falsafiy tafakkurida tarixiy ong va aksiologik dunyoqarashning uyg'unlashuvi ijtimoiy muammolarni aniqlash va ularni samarali hal etish uchun zarur metodologik baza yaratmoqda. Bugungi kunda O'zbekistonda bo'layotgan jamiyatning modernizatsion harakati – bu faqat iqtisodiy jarayon emas, balki chuqur aksiologik yangilanish jarayonidir. Bu fikrni N. Z. Chavchavadze tomonidan ilgari surilgan "aksiosfera – ijtimoiy muhitning qadriyatlar asosidagi ko'rinishi" konsepsiyasi ham tasdiqlaydi [12.67.]. Aksiosfera tushunchasi O'zbekiston jamiyatida yangilanishlar, qarorlar va ijtimoiy mexanizmlarni aniqlovchi asosiy g'oyaviy soha sifatida qaralmoqda.

Mustaqillikdan so'ng O'zbekistonda davlat siyosati qadriyatlar tizimining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatdi. Jumladan, "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" konsepsiyasi (Karimov, 2008), O'zbekiston qadriyatlar tizimini davlat miqyosida shakllantirishga qaratilgan strategik hujjat bo'ldi. Bu orqali tarixiy ongni yangilash, uni xalqning o'z tarixiga, o'z o'zligiga bo'lgan yondashuvini shakllantirish vositasiga aylantirishga erishildi. Shu bilan birga, jamiyatda qadriyatlar tizimining o'zgaruvchanligi, gibridligi va transformatsion xususiyatlari ham ijtimoiy muammo sifatida paydo bo'lmoqda. Bu holatni V. P. Tugarinov o'zining qadriyatlar nazariyasiga oid ishlanmalarda teran tahlil qilgan: qadriyatlar ijtimoiy munosabatlar dinamikasida shakllanadi, o'zgaradi va ijtimoiy ong orqali jamiyat ongiga singib boradi [13.121]. O'zbekistonda bu dinamikani islomiy qadriyatlar bilan zamonaviy demokratik g'oyalar o'rtasidagi integratsiya muammosida ko'rish mumkin. Masalan, diniy an'analarni zamonaviy huquqiy davlat qurilishi tamoyillari bilan uyg'unlashtirish ehtiyoji bu jarayonning dolzarbligini anglatadi.

Zamonaviy O'zbekiston ijtimoiy-falsafiy rivojlanishining strategik yo'nalishlaridan biri sifatida tarixiy ong va aksiologik dunyoqarash shakllanishi bilan bog'liq ijtimoiy muammolarni tanqidiy tahlil qilish dolzarb ilmiy muammodir. Ushbu masala inson va jamiyat ontologiyasining chuqur qatlamlariga, ayniqsa, ularning o'zini anglash, qadriyatlar tizimini barpo etish, tarixiy xotirani qayta shakllantirish va sivilizatsiyaviy identifikatsiyaga daxldor bo'lib, u zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy tafakkurida falsafiy refleksiya nuqtayi nazaridan tadqiq etilishi lozim bo'lgan murakkab hodisa sifatida namoyon bo'lmoqda.

Avvalo, tarixiy ong muammosining O'zbekiston kontekstidagi aks etishi, bu fenomenni ideologik, madaniy va siyosiy kodlar tizimida shakllanishini ko'rsatadi. Tarixiy ong bu yerda oddiy xotira emas, balki ijtimoiy ongning struktural komponenti sifatida maydonga chiqadi. Mustamlaka va sovet ideologiyasi davrida shakllangan tarixiy narrativlar, mustaqillikdan so'ng, keskin revizionistik yo'nalishda qayta konstruksiya qilinmoqda. Shu jarayonda tarixga idealizatsiyalash, mifologizatsiyalash va siyosiy instrumentallik bilan yondashish holatlari ko'zga tashlanadi. Bunday yondashuvlar esa tarixiy ongning tanqidiy va refleksiv komponentlarini susaytirib, uni sathiy propagandistik diskurs darajasiga tushirib qo'yadi [14.17]. Bu muammoning chuqur ildizlari, bir tomondan, tarixiy tafakkurda davomiylikning uzilishi, ikkinchi tomondan esa zamonaviy tarixiy diskursning fanda emas, balki ideologik ehtiyojlarda qurilishi bilan bog'liqdir [15.26-29]. Ayni vaqtda aksiologik dunyoqarashda ham o'ta murakkab ziddiyatlar kuzatiladi. An'anaviy qadriyatlar — diniy, patriarxal va kollektivistik asoslarda shakllangan qadriyatlar tizimi — zamonaviy, individualistik, huquqiy va texnokratik qadriyatlar bilan kolliziyaga kirishmoqda. Bunday ziddiyat ayniqsa yoshlar ongida identitet krizisini keltirib chiqaradi: ularning qadriyat yo'nalishlari ziddiyatli va ambivalent bo'lib qolmoqda. Aksiologik maydon polimorf va polifonik shaklda namoyon bo'lishi ijtimoiy birlashuvni, ijtimoiy uzviylikni zaiflashtiradi [16.112]. Xabibullayev qayd etganidek, qadriyatlar muvozanatining buzilishi ijtimoiy ongsizlik, beqarorlik va konformizmni kuchaytiradi.

O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, tarixiy ong va aksiologik dunyoqarash bir-biridan mustaqil emas, balki g'oyaviy, semantik va funksional jihatdan o'zaro bog'liq. Tarixiy ong milliy qadriyatlarning asosiy legitimatsiya manbai bo'lsa, aksiologik dunyoqarash jamiyatning hozirgi va istiqboldagi harakat trayektoriyasini belgilaydi. Shu bois ularning integratsion tahlili ijtimoiy falsafa uchun eng muhim epistemik vazifalardan biridir. Ammo, aksariyat hollarda bu integratsion yondashuv amalga oshmaydi. Bunga sabab — mavjud falsafiy metodologiyaning faqat tavsifiy (deskriptiv) va dikhotomik (ikkilik) yondashuv bilan cheklanishi [17.57-59].

Falsafiy metodologiyada tarixiy ong va qadriyatlarni tahlil qilishda klassik dikhotomiyalar — sub'ektivizm/obektivizm, natyuralizm/antinatyuralizm, apriorizm/empirizm — yondashuvining ustuvorligi kuzatiladi. Ushbu yondashuvlar esa tarixiy va aksiologik dinamikani to'laqonli anglashga imkon bermaydi, zero ular o'z-o'zini takrorlovchi struktural uslublar bilan cheklanadi. Aksincha, dinamik, tizimli va model asosidagi yondashuv bu muammoni chuqurroq anglashga imkon beradi. O'zbekiston sharoitida bu model asosida qadriyatlar evolyutsiyasini quyidagi paradigmalardan orqali izohlash mumkin: panenteistik (tabiat bilan uyg'unlik), teistik (ilohiy buyruqlar), materialistik (ijtimoiy qonuniyatlar), ekzistensial (shaxsiy ma'no), va pozitivistik (faydalilik asosida qadriyat) [18. B.124-129]. Tanqidiy jihatdan olib qaraganda, zamonaviy O'zbekistonda tarixiy ongda o'tmishni faqat faxr bilan eslash, ijobiy epizodlarni romantizatsiya

qilish, salbiy va murakkab tarixiy jarayonlarga esa befarqlik bilan qarash holatlari mavjud. Bu esa tarixiy ongning bir yoqlamaligiga olib keladi. Shu bilan birga, aksiologik maydonda qadriyatlarning iste'molcha (konsumeristik) konnotatsiyalari ustunlik qila boshlagan, bu esa ma'naviyatsiz ijtimoiy amaliyotlar va qadriyatlar inflatsiyasiga olib kelmoqda [19. B.45].

Umuman olganda, ijtimoiy-falsafiy yondashuvda tarixiy ong va aksiologik dunyoqarashni mustaqil emas, balki o'zaro genetik va strukturaviy bog'liq tizim sifatida talqin qilish, ularga model asosida tahliliy yondashish, zamonaviy O'zbekiston ijtimoiy barqarorligi va tafakkur paradigmasini chuqurroq anglashda asosiy ilmiy strategiya bo'lishi lozim. Bu masalaga darslik, siyosiy nutqlar yoki deklarativ hujjatlar emas, balki falsafiy refleksiya darajasida yondashish zarur. Aks holda, tarixiy ongni ideologik vosita, qadriyatlarni esa utilitar konstruktsiya sifatida anglash xavfi saqlanib qoladi. Shu sababli, falsafaning vazifasi — bu hodisalarni nafaqat tavsiflash, balki ularning ichki dinamikasini aniqlash, ularni zamonaviy jamiyatning intellektual barqarorligini ta'minlaydigan model asosida tahlil qilishdan iborat. Tarixiy ong – bu insoniyatning o'z ijtimoiy taraqqiyot yo'lini, o'zlikni anglash va o'zining o'tmishi bilan muloqotga kirishishining eng muhim shakllaridan biridir. O'zbekiston misolida bu jarayon XX asr oxiri va XXI asr boshlarida, ya'ni mustaqillik davrida, tub ijtimoiy va g'oyaviy siljishlar bilan bog'liq holda kechdi. Bu yerda, ayniqsa, aksiologik omillar – ya'ni qadriyatlar tizimi – tarixiy ongning shakllanishiga kuchli ta'sir o'tkazdi.

O'zbekiston ijtimoiy-falsafiy tafakkurida tarixiy ongning shakllanishi bir necha muhim bosqichlardan o'tdi. Sovet davrida tarixiy ongning asosiy belgilaridan biri bu tarixiy materializmga asoslangan marksistik dunyoqarash edi. Bu yondashuv, bir tomondan, tarixiy jarayonlarning ichki mantiqiy asoslarini ochishga urinarkan, boshqa tomondan esa, aksariyat holatlarda axborotning ideologik filtrlanishiga olib keldi [20. B 29].

Mustaqillik yillarida esa, tarixiy ong keskin yangilanishga yuz tutdi. Bu, birinchidan, milliy tarixni qayta talqin qilish, ikkinchidan, milliy qadriyatlar va an'analarni qadrlash zarurati bilan bog'liq bo'ldi. Tarixiy bilimni shakllantirish jarayoni faqatgina faktlar yig'ish emas, balki ularni aksiologik jihatdan qayta baholashni ham o'z ichiga oldi. Bu holat V.M. Mejuevning tarixiy ong va tarixiy fan munosabatlari haqidagi qarashlariga hamohang bo'lib, u tarixni nafaqat ilmiy, balki axloqiy va g'oyaviy fenomen deb baholaydi [21. B. 19-21]. Bu holat, ayniqsa, O'zbekistonning ijtimoiy-falsafiy taraqqiyotida yaqqol ko'zga tashlandi. Tarixiy ong – bu ijtimoiy ongning muhim komponenti bo'lib, u jamiyatning madaniy o'ziga xosligini ham belgilaydi. Shuning uchun, tarixiy ongni o'rganishda faqat tarix fanining o'zi emas, balki u bilan uzviy bog'liq bo'lgan falsafa, sotsiologiya, madaniyatshunoslik va boshqa ijtimoiy fanlar ham qatnashadi.

O'zbekiston tajribasida bu ko'rinish o'z ifodasini ijtimoiy ongning yangilanishi, posttotalitar o'zlikni anglash hamda milliy g'oya va mafkuraning shakllanishida topdi. Bu esa, shubhasiz,

falsafiy tahlilni talab qiladi. Aksiologik nuqtai nazardan, tarixiy ong faqat faktlarga asoslangan emas, balki qadriy yo‘nalish bilan belgilangan ong shaklidir. Bunday yondashuv V.B. Aleksandrov tomonidan ishlab chiqilgan do‘naqa tarixiy bilim shakllari, ya’ni mafkura, ijtimoiy tajriba, badiiy tafakkur kabi omillar orqali asoslanadi [22. B. 33-35].

Aksiologik determinatsiyalarning rolini tahlil qilarkan, tarixiy ongning shakllanishi madaniy muhit, ijtimoiy vaziyat, intellektual tendensiyalar va, albatta, davlat siyosatidan mustasno emas. Bu jihatdan, O‘zbekiston tarixini qayta yozish jarayonida ideologik tanlov, g‘oyaviy seleksiya jarayoni aniq seziladi. Masalan, Amir Temur shaxsiga e‘tiborning ortishi va u orqali kuch, adolat va davlatchilik timsolining tiklanishi – bu tarixiy ongda yangi qadriyat mezonining paydo bo‘lishidir.

Tarixiy ongning zamonaviy bosqichdagi muammolari, ayniqsa, yoshlar orasida tarixiy befarqlik, tarixga soddalashgan yoki mifologik yondashuvlar kuchayib borayotganida yaqqol ko‘rinadi. Bu holat, o‘z navbatida, tarixiy tafakkur va ongni rivojlantirishning ta’limiy va mafkuraviy omillar bilan uyg‘unlashmaganligini anglatadi.

O‘zbekistonning ta’lim tizimida tarix faqat faktlar yig‘indisi sifatida emas, balki ijtimoiy-siyosiy va aksiologik tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish vositasi sifatida o‘rgatilishi lozim. Bundan tashqari, tarixiy ongni shakllantirishda ijtimoiy-pedagogik muhit, ya’ni maktab, OAV, internet, ommaviy madaniyat kabi omillar kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Agar bu omillar asosan global g‘oyalar, umumjahon hodisalari, iste’mol madaniyati ustuvorligiga asoslangan bo‘lsa, unda milliy tarixiy ongda assimilyatsiya yoki dekulturnatsiya jarayonlari kuzatiladi. Shuningdek, tarixiy ongning shakllanishida kognitiv-aksiologik ziddiyatlar ham mavjud. Bir tomondan, tarixiy haqiqatga intilish, boshqa tomondan esa, tarixiy estetikaga, g‘urur va iftixorga intilish bir-biriga zid bo‘lishi mumkin. Shuning uchun tarixiy ongda haqiqat va qiymat, izchil tarixiy dalil va milliy mif muvozanatini saqlash ijtimoiy-falsafiy yondashuvning eng muhim yo‘nalishidir. Bu holat O‘zbekiston misolida tarixiy ong va aksiologik dunyoqarashning shakllanishi murakkab va ko‘p qirrali jarayon ekanligini ko‘rsatadi. Unda siyosiy-iqtisodiy sharoit, ijtimoiy tafakkur, madaniyat va qadriyatlar tizimi, ta’lim siyosati, falsafiy konsepsiyalar va shaxsiy dunyoqarashlar o‘zaro ta’sir va muvofiqlikda qatnashadi.

O‘zbekiston misolida tarixiy ong va aksiologik dunyoqarash shakllanishi ijtimoiy ongning markaziy komponenti sifatida, falsafiy tahlilga asoslangan holda, ijtimoiy-madaniy, g‘oyaviy va ma’naviy omillar bilan uzviy bog‘liq holda yuzaga keladi. Bu jarayon tarixiy haqiqatga faqat faktlar orqali emas, balki ularning ijtimoiy qiymati, ma’naviy ahamiyati va g‘oyaviy vositachiligi orqali yondashishni talab qiladi. Shu sababli, O‘zbekistonda tarixiy ongni shakllantirishda metodologik puxtalik bilan bir qatorda, aksiologik mustahkamlik ham muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy O'zbekistonda tarixiy ong va aksiologik dunyoqarash ijtimoiy falsafa doirasida murakkab, lekin zarur va muqarrar dialektik jarayondir. U jamiyatni o'zligini anglash, tarixiy xotirani yangilash va ma'naviy qadriyatlar asosida istiqbolni belgilashga undaydi. Ushbu jarayonda aksiologik yondashuv faqat falsafiy refleksiya emas, balki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi metodologik asos bo'lib xizmat qilmoqda. Tarixiy ongni shakllantirish orqali qadriyatlar tizimini rivojlantirish esa O'zbekistonning zamonaviy sivilizatsion tanlovidagi asosiy omildir.

Tarixiy ong va aksiologik dunyoqarashni ijtimoiy-falsafiy tahlil etish ularning insonning ma'naviy-axloqiy kamolotida, jamiyatning o'zligini anglash va tarixiy xotirasini shakllantirishda tutgan o'rni va ahamiyatini keng qamrovli anglash imkonini beradi. Tarixiy ong bu — jamiyatning o'ziga xos tafakkuri, o'tmishga munosabati va tarixiy tajribalardan xulosa chiqarish qobiliyati bo'lib, u aksiologik dunyoqarash bilan uzviy bog'liq holda inson va jamiyat ongining eng murakkab, tizimli shakllaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Aksiologik dunyoqarash esa jamiyatda mavjud bo'lgan qadriyatlar, ularning ierarxiyasi va o'zgarish dinamikasi orqali inson faoliyatini yo'naltiradi. Ushbu qadriyatlar nafaqat individlar, balki butun ijtimoiy guruhlar, millat va davlat miqyosidagi qarorlar, rag'batlar va strategik yo'nalishlarni belgilab beradi. Shu ma'noda, tarixiy ong va aksiologik dunyoqarash jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy merosi va istiqboliy rivoji uchun poydevor vazifasini bajaradi. Shuningdek, tarixiy ong va aksiologik dunyoqarash shakllanishining ijtimoiy mexanizmlari ijtimoiylashuv jarayoni, ta'lim-tarbiya tizimi, ommaviy axborot vositalari, madaniyat va ma'rifat sohalari, tarixiy xotira siyosati orqali namoyon bo'ladi. Ushbu mexanizmlar vositasida jamiyat o'zining qadimiy tajribasini yangi avlodlarga yetkazadi va milliy o'zlikni mustahkamlaydi.

Zamonaviy O'zbekistonda tarixiy ong va aksiologik dunyoqarashni shakllantirishda qator ijtimoiy muammolar mavjud bo'lib, ular orasida globallashuv ta'siri, internet va virtual muhit orqali tarqalayotgan universal madaniy kodlarning milliy qadriyatlarga ta'siri, ta'lim mazmunidagi tarixiy mazmunning bir qolipda takrorlanishi, yoshlarda tanqidiy fikrlashning yetarli darajada shakllanmagani kabi masalalar alohida e'tiborga loyiqdir. Bunday sharoitda jamiyatning ma'naviy immunitetini oshirish, aksiologik barqarorlikni ta'minlash, tarixiy ongni mustahkamlash va tarixiy xotirani rag'batlantirish zamonaviy falsafiy va amaliy vazifalar sirasiga kiradi.

Xulosa qilib aytganda, tarixiy ong va aksiologik dunyoqarash jamiyatning o'zligini anglash, ma'naviy-axloqiy tamoyillarni belgilash, kelajak taraqqiyotini falsafiy asosda yo'naltirish uchun hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Ularning mazmuniy-strukturaviy va dinamik xususiyatlarini chuqur o'rganish ijtimoiy falsafadagi eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Қахҳоров П.Х. (2021). Тарихий билимлар ривожда шубҳа тамойилининг илмий-концептуал аҳамияти. Самарқанд: СамДУ. – 16–73 бетлар.
2. Меликова М.Н. (2019). Ўзбекистон ёшларининг тарихий онги (ижтимоий-фалсафий таҳлил). Самарқанд: СамДУ. – 5–22 бетлар.
3. Мирахмедов Ж.М. (2021). Ўзбекистоннинг миллий-маънавий хавфсизлик стратегиясини таъминлашда тарихий онгнинг аҳамияти. Наманган: ҚДПИ. – 45–120 бетлар.
4. Қахҳоров П.Х. (2021). Тарихий билимлар ривожда шубҳа тамойилининг илмий-концептуал аҳамияти. Самарқанд: СамДУ. – 16–73 бетлар.
5. Мирахмедов Ж.М. (2021). Ўзбекистоннинг миллий-маънавий хавфсизлик стратегиясини таъминлашда тарихий онгнинг аҳамияти. Наманган: ҚДПИ. – 45–120 бетлар.
6. Меликова М.Н. (2019). Ўзбекистон ёшларининг тарихий онги (ижтимоий-фалсафий таҳлил). Самарқанд: СамДУ. – 5–22 бетлар.
7. Қахҳоров П.Х. (2021). Тарихий билимлар ривожда шубҳа тамойилининг илмий-концептуал аҳамияти. Самарқанд: СамДУ. – 16–73 бетлар.
8. Черных В.Ю. Аксиология истории: философско-методологический анализ. – Екатеринбург: УрГУ, 1997. – 410 с. – С. 114–115.
9. Weber M. Wirtschaft und Gesellschaft. – Tübingen: Mohr Siebeck, 1922. – 842 S. – S. 134–136
10. Риккерт Г. Науки о природе и науки о культуре. – М.: Канон+, 1998. – 388 с. – С. 369–372.
11. Соловьев В.С. Смысл любви. – М.: Мысль, 1990. – 256 с. – С. 142.
12. Чавчавадзе Н.З. История и аксиология: ценности и смыслы. – Тбилиси: Мецниереба, 1989. – 131 с. – С. 67.
13. Риккерт Г. Науки о природе и науки о культуре. – М.: Канон+, 1998. – 388 с. – С. 369–372.
14. Соловьев В.С. Смысл любви. – М.: Мысль, 1990. – 256 с. – С. 142. Чавчавадзе Н.З. История и аксиология: ценности и смыслы. – Тбилиси: Мецниереба, 1989. – 131 с.
15. Абдуллаев А.А. Социальная философия: Учебное пособие. — Т.: Фан, 2018. — 172 б. с. 26–29.
16. Хабибуллаев Қ. Қадриятлар ва маънавий барқарорлик. — Т.: Фан, 2019. — 134 б. с. 112.
17. Кузьменко Г.Н. Базовые аксиологические модели в социально-философском знании. — М.: РУДН, 2009. — 317 с.

18. Кузьменко Г.Н. Базовые аксиологические модели в социально-философском знании. — М.: РУДН, 2009. — 317 с.
19. Жалилова З. Яшлар дунёкараши ва замонавий қадриятлар // Фалсафа ва ҳаёт, 2022, №3. — Б. 43–47. [с. 45].
20. Нечухрин А.Н. Смена парадигм в российской историографии всеобщей истории. — Минск: Авт. дис. ... докт. ист. наук, 1993. — 29 с.
21. Межуев В.М. Философия истории и историческая наука // Вопросы философии. — 1994. — № 4. — С. 19–21.
22. Александров В.Б. Культура и историческое познание. — Калинин: Изд-во Калининского ун-та, 1986. — 102 с

.